

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARI TAHLILI

Yoqubov Latifjon Baxodirjon o'g'li

Jizzax politexnika instituti, "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi assistenti,

Jizzax viloyati hokimligi Ijro intizomi nazorati bo'limi boshlig'i

Yemail: latifionyakubov@gmail.com

+99891-567-02-67

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-dekabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-dekabr 2023-yil

Jurnal soni: 9

Maqola raqami:

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.845>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

investitsiya, investitsiyalarni jalg qilish,
to'g'ridan to'g'ri investitsiya, eksport,
Imad A. Moosa, Aswath Damodaran

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarni keng jalg qilishning amaldagi holati tahlillari, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar, Prezidentimiz tomonidan investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar bo'yicha o'tkazilgan selektor yig'ilishida mazkur soha bo'yicha bergan topshiriqlarining tahlillari va bu masala bugungi kunda naqadar dolzarb ekanligi aniq tahlillarga asosan yoritib beriladi.

Kirish. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilanishi va turmush farovonligini oshirish negizida hududlarga investitsiyalarni keng jalg qilish muhim o'rinn tutadi.

Shu boisdan Davlatimiz rahbari 2023-yil 18-yanvar kuni "Eksport, investitsiya va mahalliy sanoatda 2024-yilda turgan vazifalar bo'yicha selektor yig'ilishi"da: "Yalpi ichki mahsulotni oshirish bo'yicha katta marra olinganini, lekin bunga faqat ichki investitsiya va ichki bozor bilan erishib bo'lmasligini qayd etdi. Xususan, "Yagona to'g'ri yo'llimiz – xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish va eksportni ko'paytirish" deb alohida ta'kidlab o'tdilar.

Bundan ko'rinish turibdiki, xorijiy investitsiyalarni faol jalg etish iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu boisdan, Davlatimiz rahbari tomonidan investitsiya, sanoat va eksportga bevosita mas'ul bo'lgan vazirlig, idora, uyushma, chet eldag'i vakolatxonalar hamda hudud rahbarlarining investitsiya yo'nalişlarda mas'ul o'rbinboslarining ushbu yo'nalişda olib borayotgan ishlari yetarli darajada emasligini alohida aytib o'tildi.

O'zaro bog'langan va dinamik global iqtisodiyotda investitsiyalarni keng jalg qilish iqtisodiy farovonlikni oshirishi bilan birgalikda, davlatlar uchun strategik yo'nalişlarga aylanib bormoqda.

Barqaror me'yoriy-huquqiy bazadan innovatsion rag'batlantirishgacha, malakali ishchi kuchlarini tarbiyalashdagi texnologiy yutuqlarini qamrab olishgacha, investitsiyalarni kiritish yaxlit yondashuvni talab qiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning nozik tomonlarini oshib, mustahkam, dinamik va global miyosuda raqobatbardosh investitsiya kiritish landshaftini yaratish alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr bozorining bugungi kundagi jadal o'sib borish tendensiyalarni kundan-kun kuzatib borar ekanmiz, investitsiyalarni jalg qilish masalasi bu borada kun tarbitidagi muhim rolda ekanligi namoyon bo'lib qolaveradi. Bu esa, biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun muhitni yaratishga bo'lgan qat'iy majburiyatini yuzaga olib chiqishga asos bo'ladi. Ushbu maqola investitsiyalarni keng jalg qilishning mexanizmlarini o'rganib, mamlakatning turli mintaqalardan investitsiyalarni jalg qilishning samaralarini tashkil etuvchi asosiy ustunlarni o'rganadi.

Adabiyotlar tahlili. Investitsiyalarni jalg qilish va mazkur yo'nalişda samaradorlikka erishish mexanizmlari bo'yicha bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, Avstralaliyalik olim A.M.Imod "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar: nazariya, dalil va amaliyot" risolasini yozgan. Ushbu kitobda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar nazariyalari, empirik dalillari va amaliy oqibatlari haqida

to'liq ma'lumot berilgan. U turli jihatlarni, jumladan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning motivlari, uning qabul qiluvchi mamlakatlarga ta'siri va siyosat masalalarini qamrab oladi¹.

Amerikalik olim, iqtisod yo'naliishi professori, M.Klein hamda Janubiy Koreya biznes kolleji xalqaro biznes kafedrasi assistenti G.Kvon tomonidan "Infratuzilmaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish: nega bunchalik qiyin?" masalasida ilmiy ish olib boriladi. Bunda, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlar o'rganilgan.²

Klemson universiteti, Moliyaviy innovatsiyalar va barqarorlik markazi direktori, Jerald P. Dvayer hamda Michigan universiteti yuridik fakulteti huquq professori S.Vikramaditya Khanna tomonidan "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar: keng qamrovli qo'llamma"sida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'liq o'rganilgan holda, xorijiy investitsiyalar ortidagi iqtisodiy nazariyalari, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri kabi masalalar asosli yoritib berilgan.³

Bundan tashqari, Jozef E. Stiglitz, Anil K. Gupta, Vijay Govindarajan, Xaiyan Vang kabi olimlar ham bir qator ilmiy ishlari qilgan bo'lib asosan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, biznes, davlatlar global ustunlikka erishish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan strategiyalarni o'rgangan.⁴ Bunda, asosan investitsiyalar, global raqobatbardoshlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada abstrakt-mantiqiy tahlil, analiz va sintez, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, kuzatish, tizimli yondashuv, sabab va oqibat, zamon va makon, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya, sinergetik tahlil, kabi usullardan foydalananilgan.

Tadqiqot natijalari. Juhon iqtisodiyotining dinamik manzarasida investitsiyalarni jalg qilish iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'yndaydi. Mamlakatlar va mintaqalar ichki va xorijiy investitsiyalarni jalg qilish, o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinnari yaratish va infratuzilmani yaxshilash uchun turli mexanizmlardan foydalanoqda. Bugungi kunda investitsiyalarni jalg qilishning asosiy omillaridan biri barqaror iqtisodiy siyosatning mayjudligidir. Investorlar hukumat qoidalarini, soliqqa tortish va pul-kredit siyosatida bashoratlilik va izchillikka intiladi. Shaffof va investorlar uchun qulay tartibga solish muhitini yaratadigan va qo'llab-quvvatlovchi davlatlar ko'pincha potensial investorlarning nazariга tushib qoladi. Bundan tashqari, kuchli infratuzilma investitsiyalar uchun magnitdir. Investorlar rivojlangan transport tarmoqlari, samarali logistika va zamonaviy kommunal xizmatlarga ega hududlarga moyil. Infratuzilma loyihibariga sarmoya kiritadigan davlatlar nafaqat to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalg

¹ <https://www.rmit.edu.au/>

² <https://www.tufts.edu/>

³ <https://www.clemson.edu/index.html>

⁴ <https://www.columbia.edu/>

qiladi, balki biznes operatsiyalari uchun qulay ekotizim yaratadi. Bilimli va malakali ishchi kuchi bugungi kunda iqtisodiyotda qimmatli boylikdir. Ta'lim va ishchi kuchini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan taqdirda, yetuk va sifatlari kadrlar yetishib chiqadi va natijada mamlakatga investitsiyalarni jaib qilish ehtimoli yuqori bo'ldi.

Bundan tashqari, qonun ustuvorligi, yaxshi boshqaruv va mulk huquqlarini himoya qilishga sodiqligini namoyish etadigan mamlakatlarning barqor investitsion oqimlarni jaib qilish ehtimoli ko'proq bo'ldi. Ichki va xalqaro bozorlarga kirish sarmoyadorlar uchun asosiy masala. Qulay savdo siyosati, ochiq bozorlar, mintaqaviy va global savdo shartnomalarida ishtiroy etgan davlatlar sarmoyalarni jaib qiluvchi muhit yaratadi. Odatda investorlar ko'pincha yirik va o'sib borayotgan iste'mol bozorlariga kirish imkoniyatlarini qidiradi.

Keling, iqtisodiy rivojlanish uchun investitsiyalarni jaib qilish bo'yicha ba'zi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish ham investitsiyalarni jaib etishning kuchli mexanizmi hisoblanadi. Ushbu belgilangan hududlar biznes uchun qulay shart-sharoitlarni, jumladan, soliq imtiyozlarini, soddalashirilgan tartibga solish va infratuzilmani qo'llab-quvvatlashni taklif qiladi. EIZlar xorijiy va mahalliy investorlarni nazorat ostida va rag'bathantirilgan muhitda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, o'z faoliyatini yo'lg'a qo'yishga undaydi yoki Davlat-xususiy sheriflik (DXSH) orqali davlat va xususiy sektorning hamkorligi yirik infratuzilma loyihalarni moliyalashtirish va boshqarishning samarali usuli hisoblanadi. Xatar va mas'uliyatni bo'lismish orqali transport, energetika va sog'lioni saqlash kabi loyihalarni uchun xususiy sarmoyalarni jaib qilish mumkin.

Bu nafaqat infratuzilmani yaxshilash, ayrim sohalarni rivojlantrish, balki ish o'rinnari yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishga ham o'z hissasini qo'shadi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay siyosati qabul qiladigan mamlakatlar global kapitalni yanada samarali jaib qiladi. Bu byurokratik to'siqlarni kamaytirish, tasdiqlash jarayonlarini soddalashirish va investorlar huquqlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi. Ishbilarmonlik uchun qulay muhit yaratish sarmoyadorlarga ijobjiy signal beradi, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga olib keladi.

Bundan tashqari, investorlar malakali va moslashuvchan ishchi kuchiga ega mintaqalarga ko'proq intiladi. Ta'lim va iste'dodlarni ko'paytrib borishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish barqorlar inson kapitalini ta'minlashi mumkin. Bu nafaqat investitsiyalarni jaib qiladi, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo'shadi. Mamlakatning iqtisodiy siyosati, imkoniyatlarini va me'yoriy-huquqiy bazalari haqida aniq va samarali muloqot qilish muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv va qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi shaffoflik investorlar bilan ishonchni mustahkamlaydi. Konferensiylar, forumlar va onlayn platformalar orqali mutazam ishtiroy etish turli sarmoyalarni jaib qilishga yordam beradi.

Shuningdek, investitsion kafolatlar, siyosiy xavflarni sug'urtalash va nizolarni hal qilish asoslarini kabi xavflarni kamaytirish mexanizmlarini ta'minlash investorlarda ishonchni uyg'otishi mumkin. Investorlarni eng ko'p qiyinaydigan muammolarga asosiy e'tibor qaratish orqali boshqa joylarga kiritilayotgan investitsiyalarni tegishli huudga jaib qilishi mumkin.

Oxirgi yillarda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilonma siyosat natijasi o'laroq, mamlakatimizning investitsion j孜zibadorligi oshirish, investorlarga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasida bir qator amaliy ishlar qilindi. Natijada, hududlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirili, yangi ish o'rinnari yaratildi, aholining yashash sharoitlari yaxshiland, eng asosiy, Yangi O'zbekistonning yangi investitsiya muhitini paydo bo'ldi. Bugungi kunda ham xorijiy investorlarning mamlakatimizga tobora qiziqishlari ortib bormoqda.

Fikrimiz isboti sifatida esa, 2024-yil 18-yanvar kuni Davlatimiz rahbari tomonidan aynan ushu bo'yalishda o'tkazilgan selektor yig'ilishiда berilgan topshiriqlar va asosiy vazifalarga to'xtalib o'tgan holda, tegishli tahlillarni berib o'tamiz.

Prezidentimizning matbuot kotibiti Sherzod Asadovning bayon qilishicha, yig'ilishda hozirgi murakkab vaziyatda tizimda investitsiya va eksport bo'yicha chuquq tahlil yo'qligi tanqid qilingan. Asosiy bozorlarimiz bo'lgan mamlakatlardagi devalvatsiya, jahonda ro'y berayotgan ziddiyatlar va logistika hisobiga ularga eksport kamaygan. Bunday murakkab vaziyat bugun yoki kecha boshlanmagani, Investitsiya vazirligi va tarmoqlar rahbarlari eksport bozorlarini diversifikasiya qilish ustida o'z vaqtida bosh qotirmagani ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, Davlatimiz rahbari tizimdagagi muammolarni sanab o'tib, kompleks rahbariyati so'nggi olti yilda chetdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgani haqida ma'lumot berayotgani, lekin ushu investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga, qo'shilgan qiymatga, eksportga ta'siri qanday bo'lgani bo'yicha tahlillar yetarli emasligi qayd etgan. Masalan, o'tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o'sgan. Biroq, tovarlar eksportida kutilganidek o'sish bo'lmaganay atilgan.

Hududlarda esa moliyalashtirish to'liq yakunlangan 8 trillion so'mlik 1 mingta loyiha haligacha ishga tushmagan. Mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo'yicha haligacha birorta davlat bilan kelishuvga erishilmagan. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan qiymati 480 million dollarlik 5 ta loyiha bo'yicha kelishuv imzolanganiga 1-2 yil bo'lgan bo'lsada, o'zlashtirish boshlanmaganligi ta'kidlangan. Yoki, ikki yil oldin tashkil qilingan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasiga 1 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelish bo'yicha rejaralar to'liq amalga oshirilishi shartligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Davlatimiz rahbari eksport sohasidagi ishlar ahvolini ham tahlil qilib, 2024-yil uchun eksport rejasi yetarli emasligini qayd etgan. Iqtisodiyotimizning yangi bosqichga olib chiqish uchun, eksportni yiliga kamida 30 foizga oshirib borishimiz zarurligi alohida ta'kidlangan. Lekin, o'tgan yili 2 ta drayver tarmoq va 4 ta hududda 2022-yilga nisbatan eksport hajmlari kamaygan. Bundan tashqari, yig'ilishda eksportning 50 foizi 4 ta bozorga – Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiyaga to'g'ri kelishi ta'kidlandi. Ulardan tashqari eksportni 1 milliard dollarga chiqarish mumkin bo'lgan mamlakatlar bilan yaqindan ishslash muhimligi ko'rsatib o'tilgan. Yoki, eksportning asosiy qismini tashkil qiladigan 20 turdag'i mahsulot 1 ta bozorga bog'liq bo'lib qolganligi ta'kidlangan.

Eksport tovarlarining uchdan bir qismi xomashyo bo'lib, tashqi bozorlardagi narx konyunkturasiga bog'liq. Masalan, ikki yil oldin mamlakatimiz "GSP+" tizimiga qo'shilib, 6 ming 200 turdag'i tovarlarni Yevropa bozorlariga bojsiz olib kirish imkoniyati yaratildi. Lekin o'tgan yili ushu tizimdan to'liq foydalanimay, 384 turdag'i tovarlar eksport qilindi.

Mutasaddilarga 2024-yilda eng ko'p eksport bo'ladigan Yevropadagi 10 ta davlat bilan milliy sertifikatni ikki tomonlarma tan olish bo'yicha kelishuvga erishish, 1,7 mingta xalqaro standart va 19 ta texnik reglamenti qabul qilish, 1,2 mingta korxonada xalqaro sifat tizimlarini joriy etish, sifati kafolatlangan mahsulotlar turini 4 mingtadan 7,5 mingtaga yetkazish topshirildi. Joriy yilda "GSP+" tizimi orqali Yevropaga eksport qilinadigan tovarlar turini 700 taga, hajmini 1,2 milliard dollarga yetkazish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birgalikda, Prezidentimiz investitsiya sohasidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. So'nggi olti yilda sanoatga jaib qilingan investitsiyalar hajmi 7 barobar oshdi. Lekin, ayrim mutasaddilar har bir dollar investitsiya qancha ish o'mi yaratgani, qo'shilgan qiymat va eksport qanchaga oshgani borasida tahlil yetarli emasligi ko'rsatib o'tildi. Masalan, mamlakatimizda sementga yillik ehtiyojni ortig'i bilan qoplay oladigan ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilgan. Lekin, mutasaddilar sementdan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ko'paytrib, ekologiyaga zararli ta'sirni kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy qilish o'miga yana 22 ta sement zavodi qurish taklifini berayotgani ajablanarli.

Yoki so'nggi uch yilda chetdan 14,2 milliard dollarlik asbob-uskulnidan olib kelindi. Lekin, shuncha texnologiya kiritilayotgani bilan hududlarning sanoat eksporti shunga mutanosib oshmagan. Shuncha mablag' hisobiga sanoat va eksport o'smayaptimi, demak yo loyiha "shishirilgan", yo keraksiz uskuna olib kelingan, yoki bu texnologiyalarni ishlashishni biladigan mutaxassis yo'q deb Davlatimiz rahbari alohida ta'kdlab o'tganlar.

Xorijiy investitsiyalarni jaib etish agentligi ham faqat forumlar o'tkazish bilan cheklanib qolgani tanqid qilindi. Agentlikning tumanlar kesimida investitsion xaritasi ham yo'qligi ta'kidlandi. Shu bois, har bir hudud va tarmoqdag'i o'tgan yilgi qolqoqliklarni hisobga olgan holda yangilangan investitsiya dasturini kiritish topshirildi⁵.

Xulosa va takliflar. Yuqorida ko'rib o'tganlarimizdan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib qolmasdan sohada qanchadan qancha kamchiliklarni barataraf etish orqali mamlakatni investitsiya va eksport salohiyatini yanada yuksaltirish borasida Davlatimiz rahbari tomonidan muhim masalalar tanqidiy tahlil qilinib, mutasaddilarga eng muhim ko'rsatma va topshiriqlar berib o'tilgan.

Bu esa o'z navbatida, biz yuqorida tahlillarda nazarda tutganimizdek, investitsiyalarni jaib qilishda barqaror iqtisodiy siyosatning mavjudligi, shaffof va investorlar uchun qulay tartibga

⁵ https://t.me/Press_Secretary_Uz

solist muhitni va kuchli infratuzilmani yaratish, sohani bilimli va malakali ishchi kuchi bilan to'ldirish, qonun ustuvorligi, yaxshi boshqaruv va mulk huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qartish, qulay savdo siyosati, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va faoliyatini jonlantirish, Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini izchil davom ettirish, investitsion kafolatlar orqali investorlarda ishonchni uyg'otish, eng asosiysi investorlarni eng ko'p qiyaydigan muammolarga asosiy e'tibor qaratish kabi masalalar Davlat rahbrimizning aynan shu soha bo'yicha bergen har bir topshiriqlarida o'z aksini topdi desak aslo mubolog'a qilmagan bo'lamiz.

Shu boisdan, quyidagi ayrim muhim masalalarni amalga oshirish zarurligi investitsiya sohasida kun tartibiga aylanmog'i lozim deb xulosa qilish mumkin:

- investitsiyalarni jalb qilishda barqaror iqtisodiy siyosatning mavjudligi, shaffof va investorlar uchun qulay tartibga solish muhitni va

kuchli infratuzilmani yaratish borasida berilgan topshiriqlar ijrosini o'z muddatlarda aniq ijro etish;

- sohani bilimli va malakali ishchi kuchi bilan to'ldirish bo'yicha zarur choralarini ko'rib, aniq natijalarga erishish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- qonun ustuvorligi, yaxshi boshqaruv va mulk huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qartish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadaorligini yanada oshirish;

- qulay savdo siyosati, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jonlantirish, Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini izchil davom ettirish;

- investitsion kafolatlar orqali investorlarda ishonchni uyg'otish, eng asosiysi investorlarni eng ko'p qiyaydigan muammolarga asosiy e'tibor qaratish kabi masalalarda alohida "yo'l xaritalarni" ishlab chiqib ijrosini sifatli va belgilangan muddatlarda ta'minlash muhim deb bilamiz. Xulosa qilib aytganda esa, ushbu yo'nalishlar investitsiyalarni jalb qilish uchun keng qamrovli va jozibali asos yaratishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-yil
2. www.president.uz
3. Imad A. Moosa. "Foreign Direct Investment. Theory, Evidence and Practice". London: Palgrave Macmillan. 2002.
4. Aswath Damodaran. "Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. America: John Wiley & Sons. 2012.

4. www.lex.uz
5. https://t.me/Press_Secretary_Uz
6. <https://stat.uz/>
7. <https://www.rmit.edu.au/>
8. <https://www.tufts.edu/>
9. <https://www.clemson.edu/index.html>
10. <https://www.columbia.edu/>